

BMT Inson Huquqlari Kengashi

**O‘zbekiston Universal davriy hisobot 4 sikli doirasida
olgan tavsiyalari**

Xulosa va/yoki tavsiyalar

Quyida keltirilgan/interaktiv muloqot davomida ishlab chiqilgan tavsiyalar O'zbekiston tomonidan o'rganib chiqilgan va O'zbekiston tomonidan qo'llab-quvvatlanadi:

Hozirgi kunga qadar inson huquqlari sohasida ratifikatsiya qilinishi kutilayotgan barcha asosiy shartnomalarni ratifikatsiya qilish va maxsus proseduralar mandati egalari tomonidan so'ralgan tashriflarni amalga oshirish (Paragvay);

Inson huquqlarini ta'minlash va muhofaza qilish bilan bog'liq xalqaro Konvensiyalar va ularning Fakultativ protokollariga qo'shilish va ratifikatsiya qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarni amalga oshirish (Turkmaniston);

Shu jumladan, Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya kabi hujjatlarni ratifikatsiya qilish orqali inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarining bajarilishini kuchaytirish (Marokash);

Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish (Senegal);

Barcha shaxslarni majburiy yo'qolishdan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilish (Argentina) (Fransiya) (Lyuksemburg);

Barcha shaxslarni majburiy yo'qolishdan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasini ijobiy ko'rib chiqish (Mo'g'uliston);

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish (Chili) (Estoniya) (Lixtenshteyn) (Lyuksemburg) (Maldiv orollari) (Ispaniya) (Urugvay);

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish va milliy preventiv mexanizmini yaratish (Braziliya);

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini imzolash va ratifikatsiya qilish (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi);

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokoliga qo'shilish va 2022-yil iyulida Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahridagi voqealar paytida xavfsizlik kuchlari tomonidan qiynoq va zo'rvonlik ishlatilgani to'g'risidagi da'volarning tergov va jinoiy ta'qib qilinishini kuchaytirish (Chexiya);

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish, shuningdek, Qochqinlar maqomi to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish (Serbiya);

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish maqsadida keyingi choralarni ko'rish (Slovakiya);

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish maqsadida keyingi qadamlarni qo'yish (Gruziya);

Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya Fakultativ protokolining qiynoqlar

monitoringi va oldini olishning asosiy mexanizmini ko'rib chiqish va ratifikatsiya qilishni tezlashtirish (Ukraina);

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish (Chili) (Islandiya) (Lyuksemburg) (Malta);

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish hamda maktab o'quv dasturlarida jinsiy va reproduktiv salomatlik hamda huquqlar to'g'risidagi majburiy, yoshga mos va inklyuziv ta'limni joriy etish (Meksika);

Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish (Ispaniya);

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish bo'yicha keyingi qadamlarni qo'yish (Ukraina);

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish (Argentina) (Italiya);

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning Shikoyat qilish huquqi to'g'risidagi Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish (Lixtenshteyn);

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish (Malta);

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Fakultativ protokolini imzolash va ratifikatsiya qilish (Portugaliya);

Qochqinlar maqomi to'g'risidagi konvensiya hamda Qochqinlar maqomi to'g'risidagi protokolni ratifikatsiya qilish (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi);

Qochqinlar maqomi to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish (Turkiya);

Xalqaro jinoyiy sudning Rim statuti hamda Xalqaro jinoyiy sud imtiyoz va immunitetlari to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilish (Estoniya);

Xalqaro jinoyiy sudning Rim statutini uning 2010-yildagi talqinida ratifikatsiya qilish (Lixtenshteyn);

Yevropa Kengashining Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik va oiladagi zo'rvonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilish (Fransiya);

Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari mexanizmlari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash (Qozog'iston);

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni himoya qilish va rag'batlantirish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari mexanizmlari, shu jumladan shartnoma organlari bilan hamkorlikni davom ettirish (Qirg'iziston);

Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari mexanizmlari bilan konstruktiv hamkorlikni davom ettirish (Tojikiston);

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ularning giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish salohiyatini mustahkamlash uchun hamkorlikni davom ettirish (Singapur);

Qiynoqlar ta'rifi Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 7-moddasiga to'liq mos kelishini ta'minlash uchun Jinoyat kodeksiga o'zgartirishlar kiritish choralarini ko'rish (Kosta-Rika);

Ichki qonunlarni so'nggi konstitutsiyaviy islohotlar va inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlar bilan uyg'unlashtirish, xususan, demokratik institutlar va qonun ustuvorligini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish (Filippin);

O'zbekistonning ichki qonunchilik bazasini uning xalqaro majburiyatlariga moslashtirish borasidagi ishlarni davom ettirish (Rossiya Federatsiyasi);

Inson huquqlarini himoya qilishning institutsional mexanizmlarini kengaytirish jarayonlarini davom ettirish (Turkmaniston);

Mamlakatning xalqaro majburiyatlariga muvofiq, inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilish sohasidagi huquqiy va ma'muriy bazani takomillashtirishni davom ettirish (Ukraina);

Inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilish sohasidagi salohiyatni yanada kuchaytirish, shu jumladan yangilangan Konstitutsiya, 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya va boshqa dasturiy hujjatlar doirasida (Belarus);

Xalqaro majburiyatlarga muvofiq huquqiy va ma'muriy bazani takomillashtirish sa'y-harakatlarini davom ettirish (Efiopiya);

Xalqaro majburiyatlariga muvofiq huquqiy va ma'muriy bazani takomillashtirishni davom ettirish (Gruziya);

Inson huquqlari institutlari va mexanizmlarini yanada mustahkamlash bo'yicha ishlarni davom ettirish (Rossiya Federatsiyasi);

Turmushda nomusga tegishni Jinoyat kodeksiga alohida jinoyat sifatida kiritish (Islandiya);

Inson huquqlari bo'yicha milliy harakatlar rejasini fuqarolik jamiyati va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar ishtirokida samarali amalga oshirishni kuchaytirish (Qozog'iston);

Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani samarali amalga oshirish sa'y-harakatlarini ikki baravar kuchaytirish va inson huquqlari sohasidagi yondashuvlarni turli davlat reja va dasturlariga kiritish uchun keng qamrovli milliy siyosatni yo'lga qo'yish (Paragvay);

Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyaning samarali amalga oshirilishini ta'minlash (Bahrayn);

Inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy instituti faoliyatini Parij tamoyillariga moslashtirish borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish (Malayziya);

Inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutini Parij tamoyillariga muvofiq "A" maqomiga ko'tarish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Nepal);

Ombudsman idorasining mustaqilligini kuchaytirish va Inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlarni Parij tamoyillariga to'liq moslashtirish (Moldova Respublikasi);

Inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutni mustahkamlash va uni Parij tamoyillariga moslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish (Birlashgan Arab Amirliklari);

Inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutni Parij tamoyillariga muvofiq mustahkamlash uchun barcha zarur strategiyalarni amalga oshirish (Bahrayn);

Ombudsman idorasini Parij tamoyillariga muvofiq "A" maqomdagi inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institut sifatida akkreditatsiyadan o'tkazish uchun sharoit yaratish maqsadida kuchaytirish (Avstraliya);

Ombudsman va Ombudsman idorasining mandati va mustaqil rolini kuchaytirish orqali qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash (Finlyandiya);

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiq Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning roli va samaradorligini oshirish (Qirg'iziston);

Inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institut huzuridagi qiynoqlarga qarshi mexanizmni, xususan uning shaffofligi va mustaqilligini kuchaytirish (Chernogoriya);

Tavsiyalarni amalga oshirish o'lchamini qamrab olish orqali hisobot berish va keyingi qadamlar bo'yicha milliy mexanizmni takomillashtirishni davom ettirish va shu maqsadda tegishli hamkorlik o'rnatish imkoniyatini ko'rib chiqish (Paragvay);

Ham davlat, ham xususiy sektorda kamsitish va nafratga asoslangan jinoyatlarining barcha shakllarini taqiqlovchi va ularning qurbonlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash xizmatlarini o'z ichiga olgan keng qamrovli qonunni qabul qilish (Meksika);

Ijtimoiy-iqtisodiy kamsitishlarga barham berishga alohida urg'u bergan holda, barcha turdagi kamsitishlarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rish (Bangladesh);

Kamsitishga qarshi kompleks qonunchilikni qabul qilish va rozilik asosidagi besoqolbozlik munosabatlariga nisbatan taqiqni bekor qilish (Chexiya);

Aholining ijtimoiy zaif qatlamlari huquqlarini qonun va amalda himoya qilishni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish (Rossiya Federatsiyasi);

Gender zo'rvonlik, bolalar mehnati va kamsitish kabi muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilik bazalarini kuzatib borish va qo'shimcha resurslar ajratish (Armaniston);

Aholining zaif guruhlari, shu jumladan xotin-qizlar, bolalar va etnik ozchiliklar huquqlarini ilgari surish va himoya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish (Armaniston);

Irqchilik va irqiy kamsitishlarga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishishga qaratilgan harakatlarni davom ettirish (Kuba);

Qiynoqlar va shafqatsiz muomala to'g'risidagi da'volarni samarali va tezkor tergov qilishni ta'minlash (Kuvayt);

Jazosizlikning oldini olish uchun qiynoqlarga oid barcha holatlar bo'yicha tezkor, har tomonlama va samarali tergov o'tkazilishini ta'minlash (Lixtenshteyn);

Qamoqxona tizimidagi qiynoqlar va shafqatsiz muomala to'g'risidagi barcha da'volar bo'yicha puxta, samarali, mustaqil va xolis tergov o'tkazish, aybdorlar jinoyat javobgarlikka tortilishi va tegishli tarzda jazolanishi hamda jabrlanuvchilar to'liq tovon olishini ta'minlash (Lyuksemburg);

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lish to'g'risidagi barcha xabarlarini, shu jumladan zo'rqlash va jinsiy zo'rvonlik haqidagi da'volarni tekshirish va aybdorlarni javobgarlikka tortish (Malta);

Qamoqxonada mansabdor shaxslari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan qiynoqlar va shafqatsiz muomala to'g'risidagi barcha da'volar bo'yicha samarali tergovlar o'tkazish (Sloveniya);

Qamoqxonalarning mustaqil, nodavlat monitoringiga ruxsat berish va mahbuslarni qiynaganlikda gumon qilinayotgan shaxslarga nisbatan to'liq tergov o'tkazib, kerak bo'lganda, jinoiy javobgarlikka tortish (Amerika Qo'shma Shtatlari);

Fuqarolik kodeksining 991 va 1021-moddalariga qiynoq yoki shafqatsiz muomalaga duchor bo'lgan shaxslarga tovon to'lash choralari kiritish tartibini tezlashtirish (Ispaniya);

Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlarini qo'llashni bartaraf etish, ular to'g'risidagi da'volarni har tomonlama va xolisona tergov qilish va aybdorlarni javobgarlikka tortish (Kanada);

Qiynoqlar va shafqatsiz muomala holatlarini samarali tekshirish, jinoyatchilarning jazosiz qolishini kamaytirish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga shikoyat qilishning mustaqil mexanizmini yaratish (Irlandiya);

Korrupsiyaga qarshi kurash agentligining rolini mustahkamlash, xususan, uni yetarli moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlash, mustaqilligini kafolatlash va tekshirish vakolatlarini kengaytirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish (Togo);

Mamlakatdagi huquqiy madaniyat darajasini oshirish uchun keng jamoatchilik orasida inson huquqlari bo'yicha xabardorlikni oshirish va o'qitish tadbirlarini davom ettirish (Turkmaniston);

Keng jamoatchilik muhokamalari, siyosiy plyuralizm va fuqarolik jamiyatining kengaytirilgan rolini qo'llab-quvvatlash (Amerika Qo'shma Shtatlari);

Davlat xizmatlarini ko'rsatishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shu jumladan 2022–2026-yillarda davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish Milliy strategiyasini amalga oshirish orqali davom ettirish (Ozarbayjon);

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasiga muvofiq sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligini kafolatlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish (Shveysariya);

Sud tizimining to'liq mustaqilligi va xolisligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni davom ettirish (Gretsiya);

Tegishli xalqaro standartlarga muvofiq sudyalarning lavozimni kafolatlangan tarzda egallab turish tartiblarini kuchaytirish, lavozimga tayinlash, ko'tarish va ishdan bo'shatish rejimini qayta ko'rib chiqish orqali sud hokimiyatining mustaqilligi, xolisligi va samaradorligini oshirish choralari ko'rish (Irlandiya);

Fuqarolarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va sud-huquq tizimini isloh qilish sa'y-harakatlarini davom ettirish (Efiopiya);

Qonun ustuvorligi va adolatni mustahkamlashga yordam beradigan islohotlarni davom ettirish (Fransiya);

Qoraqalpog'iston voqealari paytida inson huquqlari buzilishi holatlarini keng miqyosda tekshirish uchun amalda mustaqil, xolis va samarali qo'mitani tuzish (Norvegiya);

Qoraqalpog'istonda 2022-yil iyulida bo'lib o'tgan namoyishlar paytidagi inson huquqlarining buzilishi va odamlarga nisbatan yomon munosabatda bo'lish holatlari bo'yicha keng qamrovli tergovni yakunlash va natijalarini ommaga e'lon qilish (Kanada);

Asosan, tegishli qonun hujjatlarini qabul qilish va amalga oshirish orqali soʻz va fikr erkinligini toʻliq kafolatlash uchun zarur choralarini koʻrish hamda inson huquqlari himoyachilarining roʻyxatga olinishi va ularning erkin faoliyat yuritishini osonlashtirish (Urugvay);

2018-yilda berilgan tavsiyaga amal qilgan holda, xalqaro standartlarga muvofiq, barcha shaxslarga, xususan, inson huquqlari himoyachilariga soʻz erkinligi huquqini tinch yoʻl bilan amalga oshirishini kafolatlash (Argentina);

Soʻz erkinligi huquqini, jumladan, oflayn va onlayn ommaviy axborot vositalari erkinligini kafolatlash hamda jurnalistlar, bloggerlar va faollar uchun xavfsiz muhit yaratish (Chexiya);

Soʻz erkinligi va tinch yigʻilishlarni ragʻbatlantirish, shuningdek jurnalistlar va huquq himoyachilarini qoʻrqitish va taʼqiblardan himoya qilish uchun samarali choralar koʻrish (Gretsiya);

Jurnalistlar, mustaqil bloggerlar va fuqarolik jamiyati faollari xalqaro standartlarga muvofiq erkin faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish orqali hukumatning islohotlar kun tartibiga soʻz erkinligini yanada mustahkamlash boʻyicha aniq chora-tadbirlarni kiritish (Finlyandiya);

Barcha jurnalist va huquq himoyachilari har qanday qoʻrqitish va qonuniy yoki boshqa taʼqiblardan xoli tarzda onlayn va oflayn rejimda ishlashini taʼminlash (Lyuksemburg);

Barcha jurnalist va bloggerlar uchun qoʻrqitish hamda sud va boshqa taʼqiblardan xoli tarzda onlayn va oflayn rejimda ishlash imkoniyatini taʼminlash (Polsha);

Jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari erkinligini qonun va amalda himoya qilishni kuchaytirish boʻyicha chora-tadbirlar koʻrishda davom etish (Slovakiya);

Har bir inson, shu jumladan huquq himoyachilari, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 19-moddasiga muvofiq, soʻz erkinligi va axborotdan foydalanish huquqidan oʻz xavfsizligi yoki boshqa salbiy oqibatlaridan qoʻrqmagan holda foydalanishini taʼminlash (Shveysariya);

Jurnalist, yozuvchi va bloggerlar tanqidiy fikr bildirgani yoki nozik deb topilgan mavzularni yoritgani uchun jazolanishdan qoʻrqmagan holda erkin ishlashini taʼminlash (Belgiya);

Jurnalist va ommaviy axborot vositalari xodimlarini taʼqib, qoʻrqitish, sud va boshqa tahdidlardan himoya qilish, shu jumladan ularga hukumat aralashuvizis ishlashga ruxsat berish uchun qonuniy mexanizmlarni joriy etish (Estoniya);

Matbuot, jurnalistlar va bloggerlarning ortiqcha cheklovlersiz erkin va mustaqil ishlashini taʼminlash (Germaniya);

Shu jumladan, erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari uchun qulay muhit taʼminlanishini davom ettirish orqali soʻz erkinligi va jurnalistlarning himoya qilinishini taʼminlash yoʻlidagi qonunchilik choralarini koʻrishda davom etish (Indoneziya);

Jurnalistlar, huquq himoyachilari va NNTlar uchun xavfsiz va qulay muhitni taʼminlash boʻyicha saʼy-harakatlarni kuchaytirish (Italiya);

Jinoyat kodeksining 221-moddasini soʻz erkinligi sohasidagi huquqlarini amalga oshiruvchi shaxslarni jazolash uchun, shu jumladan, qamoq jazolarini tegishli jarayonlarsiz uzaytirish yoʻli bilan ishlatishdan tiyilish (Avstraliya);

Nodavlat notijorat tashkilotlari, huquq himoyachilari, jurnalistlar va fuqarolik jamiyatining boshqa aʼzolari fikr va soʻz erkinligi, uyushmalar va tinch yigʻilishlar oʻtkazish huquqlarini erkin amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish (Litva);

Barcha jurnalistlar, bloggerlar va faollarni zudlik bilan afv etish va ayni paytda qamoqda o'tirganlarning zudlik bilan ozod etilishi va rehabilitatsiya qilinishini ta'minlash (Norvegiya);

Barcha insonlar obyektiv va mustaqil ma'lumotlarga onlayn va oflayn tarzda ega bo'lishini ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirishni davom ettirish (Litva);

Axborot kodeksi loyihasi O'zbekistonning inson huquqlari, xususan, so'z va matbuot erkinligi sohasidagi xalqaro majburiyatlariga muvofiqligini ta'minlash (Fransiya);

Uyushmalarga birlashish erkinligini ta'minlash maqsadida, xalqaro standartlarga muvofiq, NNT kodeksini qabul qilish (Norvegiya);

NNTlarni tashkil etish va faoliyatini cheklovchi ma'muriy to'siqlarni kamaytirish orqali mustaqil fuqarolik jamiyati rivojlanishini rag'batlantirish (Kanada);

Mamlakatdagi nodavlat notijorat tashkilotlari xorijiy grantlarni olishi uchun milliy hamkor va/yoki davlat organi vakillari bilan sheriklik qilishi talab etiladigan 2022-yilgi farmonni bekor qilish (Ispaniya);

NNTlarni ro'yxatga olishning soddalashtirilgan va shaffofroq jarayonini joriy etish, NNT kodeksi xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq bo'lishini ta'minlash, 2022-yil iyun oyidagi farmonni qayta ko'rib chiqish, olingan mablag'lardan foydalanishga qo'yiladigan cheklovlarni bekor qilish va hukumatga hisobot berish talablarini yumshatish (Shveysariya);

1991-yildagi «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonun, 1996-yildagi «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun va 1999-yildagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonun ijrosini ta'minlash (Fransiya);

NNTlar uchun huquqiy va ish muhitini takomillashtirish hamda ularning mustaqilligi va samaradorligini ta'minlashni davom ettirish (Indoneziya);

Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi nizomni qayta ko'rib chiqish va nodavlat notijorat tashkilotlari xorijiy donorlar tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarni amalga oshirishini yengillashtirish uchun ro'yxatga olish jarayonini soddalashtirish (Amerika Qo'shma Shtatlari);

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan NNTlar uchun ro'yxatdan o'tish va xorijiy moliyalashtirish to'g'risidagi deklaratsiya talablari borasidagi shaffoflikni oshirish (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi);

Tinch yig'ilishlar erkinligi huquqini cheklovchi qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish (Chexiya);

Din yoki e'tiqod erkinligini targ'ib qilish va himoya qilish hamda tegishli cheklov va kamsitishlarning oldini olish uchun qo'shimcha choralar ko'rish (Italiya);

Fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni mustahkamlash va himoya qilish (Kamerun);

Inson huquqlari masalalarini muhokama qilish va qarorlar qabul qilishda fuqarolik jamiyati ishtirokini kuchaytirish borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish (Kuba);

Xalqaro huquqiy majburiyatlarga muvofiq, diniy e'tiqod va so'z erkinligiga asossiz ravishda to'sqinlik qiladigan qonunchilik qoidalarini bekor qilish choralarini ko'rish (Gambiya);

Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq va asosiy erkinliklarni, ayniqsa xotin-qizlar huquqlari va matbuot erkinligini ta'minlash (Germaniya);

Asosiy erkinliklar va jamiyat hayotida to'laonli ishtirok etish huquqini qo'llab-quvvatlash (Iroq);

Bolalarning ommaviy axborot vositalari va raqamli makondagi shaxsiy daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik va yo'riqnomalarni, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning axloqiy standartlarini joriy etish (Gambiya);

Oilani jamiyat va davlat tomonidan muhofaza qilinadigan jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida qo'llab-quvvatlash va himoya qilish siyosatini kuchaytirish borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish (Tunis);

Oilani jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini sifatida qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Misr);

Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini davom ettirish (Ummon);

Ayollar va qizlar savdosining barcha holatlari bo'yicha samarali, mustaqil va xolis tergov o'tkazish hamda odam savdosi qurbonlarining qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan yetarli darajada foydalanishini ta'minlash (Chernogoriya);

Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurash chora-tadbirlarini davom ettirish (Nepal);

Shu jumladan, shikoyatlarning tezkor va samarali tekshirilishi, aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortish va jabrlanuvchilarni tegishli kompensatsiya bilan ta'minlash orqali ayollar va qizlar savdosi holatlariga barham berish uchun qat'iy choralar ko'rish (Portugaliya);

Odam savdosiga qarshi kompleks tarzda kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirish (Singapur);

Ayollar va bolalar savdosiga barham berish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Iroq);

Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiya ishini davom ettirish (Ummon);

Ishchilarning mehnat huquqlari va maqomini yaxshilash, ish joylarida mehnat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish (Shri-Lanka);

Amaldagi milliy qonun va dasturlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash orqali majburiy mehnatga barham berish borasidagi sa'y-harakatlarni faollashtirish (Kosta-Rika);

Kasaba uyushmalari va mehnat tashkilotlarining erkinligiga ko'maklashish va ular mustaqil faoliyat yuritishiga ruxsat berish (Germaniya);

Mehnat sharoitlarini yaxshilash va odamlarni ijtimoiy himoya qilish (Iroq);

Umr davomida kamsitilishsiz kambag'allikka qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish uchun inson huquqlari nuqtayi nazaridan tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan ijtimoiy himoya tizimini yaratish (Paragvay);

Nogironligi bor shaxslar, keksalar, qochqinlar va boshpana izlovchilarga ajratilgan ijtimoiy himoya nafaqalari miqdori yetarli darajada bo'lishini ta'minlash va ijtimoiy nafaqalar miqdorini vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqish (Togo);

Tarkibiy ijtimoiy siyosat va dasturlarni amalga oshirish orqali kambag'allikka qarshi kurash choralarini kuchaytirish (Marokash);

Muvaffaqiyatli ijtimoiy siyosatni ilgari surish orqali aholi, ayniqsa, uning eng muhtoj qatlamlari uchun farovonlikning imkon qadar yuqori darajasini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni jadallashtirishda davom etish (Venesuela Bolivar Respublikasi);

Odamlarning turmush darajasini oshirish va barchaning ijtimoiy, sog'liqni saqlash va ta'lim holatini yaxshilash maqsadida yuqori iqtisodiy o'sishga erishishga qaratilgan sa'y-harakatlarni davom ettirish (Jazoir);

Arzon uy-joy bilan ta'minlash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlariga urg'u bergan holda ochlik va surunkali to'yib ovqatlanmaslik bilan kurashish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Paragvay);

Arzon uy-joy bilan ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Hindiston);

Oziq-ovqatga bo'lgan huquqni kafolatlash hamda, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan guruhlar orasida ochlik va to'yib ovqatlanmaslikka qarshi kurashni kuchaytirish (Hindiston);

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, xususan, qishloq va chekka hududlarda yashovchi hamda marginal guruhlariga mansub bo'lganlar uchun sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish (Senegal);

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash va sog'liqni saqlash bilan bog'liq Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi ishlarni davom ettirish (Shri-Lanka);

Sil va OIV bilan kasallanish darajasini pasaytirish, gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarni nazorat qilish dasturlari orqali aholi salomatligini kafolatlashni davom ettirish (Venesuela Bolivar Respublikasi);

Barcha uchun sifatli tibbiy xizmatlar mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash maqsadida, inson va moliyaviy resurslarni yetarli darajada ajratishni davom ettirish (Bangladesh);

Odamlarning hayot va salomatlikka bo'lgan huquqini samarali himoya qilish maqsadida, sog'liqni saqlash xizmatiga kiritilayotgan sarmoyalarni ko'paytirishda davom etish (Xitoy);

Sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarni faollashtirish, shu jumladan, inson va moliyaviy resurslarni yetarli hajmda ajratish (Eron Islom Respublikasi);

Neonatal, chaqaloqlar, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar va onalar o'limini kamaytirish borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish (Qatar);

Jinoyat kodeksining 113-moddasini bekor qilish, OIV yuqtirganlik uchun jinoiy jazo belgilanishini bekor qilish va OIV testi har qanday sharoitda ham ixtiyoriy bo'lishini ta'minlash (Meksika);

Erta yoshdagi o'lim ko'rsatkichlarini yanada kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish masalasini ko'rib chiqish (Tanzaniya Birlashgan Respublikasi);

Barcha uchun sifatli jinsiy va reproduktiv salomatlik xizmatlarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash (Islandiya);

Ta'lim tizimini mustahkamlashni davom ettirish va shahar bilan qishloq joylari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish (Maldiv orollari);

Yetarli resurslarni ajratish va kamida 12 yillik boshlang'ich va o'rta ta'limni qamrab olish uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan bepul ta'lim muddatini uzaytirish orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni davom ettirish (Eron Islom Respublikasi);

Qoloq va qishloq joylarda yashovchi bolalar uchun boshlang'ich maktab ta'limi olish imkoniyatlarini yaxshilashni davom ettirish (Malayziya);

Barcha bolalar sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun ta'limga ajratiladigan resurslarni ko'paytirish (Qatar);

Ta'lim sohasiga yetarli resurslarni ajratish, malakali o'qituvchilar sonini ko'paytirish va o'quv materiallari sifatini yaxshilash orqali ta'lim sifatini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni kuchaytirish (Saudiya Arabistoni);

Aholining tegishli qatlamlari uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish (Singapur);

Ta'lim tizimini rivojlantirish va, shu jumladan nogiron bolalar uchun, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish (Tunis);

Ta'lim sektori uchun resurslarni ajratishda davom etish (Turkiya);

Barcha bolalar sifatli ta'limdan raqobatsiz asosda teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash, bunda qizlarga, kam ta'minlangan oilalar farzandlariga, qishloq va chekka joylardan kelgan va nogiron bolalarga alohida e'tibor berish (Birlashgan Arab Amirliklari);

Ta'lim sohasiga yetarli resurslarni ajratish, malakali o'qituvchilar sonini ko'paytirish va o'quv materiallari sifatini oshirish orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish (Vyetnam);

Nogiron qizlar va bolalarning ta'lim olish huquqini himoya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Xitoy);

Maktab o'quv dasturlariga jinsiy va reproduktiv salomatlik va huquqlar bo'yicha yoshga mos va inklyuziv majburiy ta'limni joriy etish (Islandiya);

Inson huquqlari bo'yicha milliy ta'lim tizimini, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun mustahkamlashni davom ettirish (Yaman);

Iqlim o'zgarishi inson huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olish choralari ko'rish (Vetnam);

2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish kun tartibini doimiy ravishda amalga oshirish uchun siyosat va chora-tadbirlarni takomillashtirish (Xitoy);

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ilgari surish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish (Efiopiya);

2030-yilga kelib Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish (Qirg'iziston);

Samarali boshqaruvni rag'batlantirish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish maqsadida, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi doirasidagi harakatlarni davom ettirish (Pokiston);

Biznes va inson huquqlari bo'yicha milliy harakatlar rejasi loyihasini qabul qilish (Mo'g'uliston);

Biznes va inson huquqlari bo'yicha asosiy tamoyillarni amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar rejasini tasdiqlash va amalga oshirishni tezlashtirish choralari ko'rish (Indoneziya);

Tolibon de-fakto hukumati bilan har qanday hamkorlik Afg'oniston xalqining, ayniqsa xotin-qizlar, bolalar, nogironlar va milliy ozchiliklarning inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmat ko'rsatishiga bog'liq bo'lishi va ularning atrofida qurilishini ta'minlash (Afg'oniston);

Gender tengligini targ'ib qilish va xususi, jamoat va iqtisodiy hayotning barcha darajalarida xotin-qizlarning vakilligini rag'batlantirish bo'yicha samarali sa'y-harakatlarni davom ettirish (Qozog'iston);

Gender tengligi tamoyillarini ta'minlash va sud tizimida xotin-qizlar vakilligini oshirish (Kuvayt);

Xotin-qizlar huquqlari va jamiyat hayotidagi ishtirokini takomillashtirish orqali gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni davom ettirish (Laos Xalq Demokratik Respublikasi);

Gender tengligiga erishish bo'yicha Milliy strategiya doirasida xotin-qizlarning davlat sektoridagi imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni davom ettirish (Pokiston);

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish hamda gender tengligini ta'minlash (Tojikiston);

Gender tengligini ta'minlash milliy strategiya doirasida gender tengligini targ'ib qilish va xotin-qizlarning jamiyatda, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish (Tunis);

Gender tengligini ilgari surish va xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi vakilligini oshirishni davom ettirish (Turkiya);

Xotin-qizlarning ilmiy tadqiqotlarga jalb etilishini qo'llab-quvvatlash (Ozarbayjon);

Xotin-qizlar huquqlarini ilgari surishda erishilgan yutuqlarni davom ettirish (Kamerun);

Gender stereotiplarni yo'q qilish, xotin-qizlar uchun barcha kasbiy taqiqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'lim va ishga joylashish imkoniyatlarini ochish va xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka murossasizlik muhitini yaratish (Chili);

Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni davom ettirish (Efiopiya);

2030-yilgacha bo'lgan davrda gender tengligiga erishish bo'yicha Milliy strategiyani amalga oshirish orqali xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Gretsiya);

2023-yil aprelda qabul qilingan gender zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan qonuni amalga oshirish, xotin-qizlarni ularni himoya qilish, qo'llab-quvvatlash va huquqiy himoyaga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishda rag'batlantirish va ilg'or tajribalarni joriy etishda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qilish (Amerika Qo'shma Shtatlari);

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari har tomonlama tekshirilishi va jabrlanuvchilarning samarali yuridik himoya va yordam vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash (Lixtenshteyn);

Gender zo'ravonlik, shu jumladan oilaviy zo'ravonlik qurbonlari tibbiy va yuridik xizmatlar, jumladan, maslahat, tovon puli va rehabilitatsiya, shuningdek, butun mamlakat bo'ylab shelterlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun aniq choralar ko'rish (Malayziya);

Hozirda ko'rib chiqilayotgan yangi Jinoyat kodeksining yakuniy loyihasiga oilaviy zo'ravonlikning barcha shakllari, shu jumladan ruhiy, iqtisodiy va jinsiy zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik kiritilishi masalasini ko'rib chiqish (Malta);

Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllariga, shu jumladan gender va oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurashni davom ettirish (Mo‘g‘uliston);

Nayrobida bo‘lib o‘tgan Aholishunoslik va taraqqiyot bo‘yicha xalqaro konferensiyada qabul qilingan majburiyatni bajarish, ya‘ni zo‘ravonlik qurbonlariga xizmat ko‘rsatuvchilar, jumladan, shelter va ishonch telefonlari uchun davlat mablag‘larini ajratish orqali ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni yo‘qotishga erishish va barcha davlat xizmatchilari, shu jumladan huquqni muhofaza qilish va ta‘lim sohasidagi xodimlar uchun gender tengligi bo‘yicha treninglar o‘tkazish (Panama);

2023-yil aprelida qabul qilingan gender zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilagan qonunni qat‘iy amalga oshirish (Filippin);

Gender zo‘ravonlik qurbonlari va omon qolganlarni zarur himoya va qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan huquqiy, ijtimoiy va psixologik yordam bilan ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kengaytirish (Filippin);

Shu jumladan, gender zo‘ravonligining ayrim turlari uchun jinoiy javobgarlik belgilangan yangi qonunchilikni amalga oshirish hamda inson huquqlari bo‘yicha treninglar o‘tkazish va xabardorlikni oshirish kampaniyalarini o‘tkazish orqali jinsiy va gender zo‘ravonlikning barcha shakllarini oldini olish va bartaraf etish uchun samarali choralarni ko‘rish (Portugaliya);

Jinoyatchilarni javobgarlikka tortish va jazolash hamda jabrlanuvchilarni himoya qilish va himoya vositalaridan foydalanishini ta‘minlash jarayonida xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka samarali qarshi turish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish (Moldova Respublikasi);

Oiladagi gender zo‘ravonligi to‘g‘risidagi qonunga rioya qilish uchun zarur insoniy va moliyaviy resurslarni ajratish, shuningdek, gender zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha shikoyatlar va sud hukmlarini ro‘yxatga olish va monitoring qilishning samarali tizimini joriy etish (Urugvay);

Gender zo‘ravonlik, jumladan, oilaviy va jinsiy zo‘ravonlik tarqalishiga qarshi kurashish uchun tegishli huquqiy va siyosiy choralarni ko‘rish va barcha bunday holatlar samarali tergov qilinishini, aybdorlar javobgarlikka tortilishini va tegishli jazo choralari qo‘llanishini ta‘minlash (Belgiya);

Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashni davom ettirish (Italiya);

Bola huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va bolalarning har qanday sharoitda xavfsizligini ta‘minlash (Litva);

Bolalar huquqlari bo‘yicha Ombudsman idorasini yanada mustahkamlash va bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini davom ettirish (Pokiston);

Bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Ombudsman idorasi, Bolalar bo‘yicha milliy va joylardagi komissiyalar va Bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha jamoat kengashi orqali bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni davom ettirish (Shri-Lanka);

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini taqiqlovchi qonunlarni qabul qilish (Birlashgan Arab Amirligi);

Qonunchilik bazasida nafaqat jamoat joylari, balki muqobil parvarishlash muassasalari, kunduzgi bolalar bog‘chalar hamda boshqa ta‘lim muassasalarida bolalarni jismoniy jazolash taqiqlanishini mustahkamlash (Gambiya);

Xotin-qizlar, bolalar, keksalar va nogironlar kabi himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish borasidagi sa‘y-harakatlarni davom ettirish (Jazoir);

Bolalar uchun ularning huquqlari himoya qilinadigan xavfsiz raqamli makonni ta‘minlash borasidagi qo‘shimcha qonunchilik choralarni ko‘rish (Bolgariya);

Bolalar, xususan, nogiron bolalar uchun oilaviy va muqobil parvarishlashni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarni takomillashtirish (Eron Islom Respublikasi);

Shu jumladan bolalarga, xususan, xotin-qizlarga nisbatan zararli ta'sir haqidagi xabardorlikni oshirishga qaratilgan kampaniya va dasturlar orqali bolalar o'rtasida nikohni taqiqlash (Panama);

Bolalar nikohini taqiqlash bilan bir qatorda, uning zararli oqibatlari haqidagi xabardorlikni oshirish (Moldova Respublikasi);

Nikoh uchun eng kam yosh to'g'risidagi qoidani istisno qilishni bekor qilish va qo'shxotinlilik hamda, ayniqsa qishloq joylarida, majburiy nikohga qarshi kurash bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish (Kosta-Rika);

Bolalar nikohini taqiqlash (Estoniya) (Islandiya);

Inklyuziv ijtimoiy himoya, bandlik va ta'lim siyosati hamda statsionar muassasalarga joylashtirishning oldini olish uchun hamjamiyat darajasidagi xizmatlarni nazarda tutuvchi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga rioya etilishini baholash va ta'minlash uchun milliy qonunchilikni to'liq ko'rib chiqish (Panama);

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha keyingi qadamlarni amalga oshirish masalasini ko'rib chiqish (Laos Xalq Demokratik Respublikasi);

Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat xizmatlari va muassasalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash, shuningdek, ularning bandlik, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash choralarini ko'rish (Saudiya Arabistoni);

Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat xizmatlari va muassasalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash, shuningdek, ularning bandlik, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash choralarini ko'rish (Tojikiston);

Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat xizmatlari, bandlik, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish (Turkiya);

Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat xizmatlari va obyektlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash hamda ularning bandlik, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilish (Afg'oniston);

Barcha maktab va universitetlarning nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ochiqligini ta'minlash maqsadida, ta'lim infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish (Bolgariya);

Nogironligi bo'lgan shaxslarni sog'liqni saqlash va ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish jarayoniga integratsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish (Kamerun);

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirishni davom ettirish (O'mon);

Inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish (Ozarbayjon);

Shu jumladan, maktab va universitetlarning jismoniy imkoniyatlarini yaxshilash, ta'lim muassasalarini moslashtirilgan o'quv materiallari bilan jihozlash va o'qituvchilarni tegishli tayyorgarlikdan o'tkazish orqali barcha darajalarda inklyuziv ta'limga erishish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Bangladesh);

Nasroniyar va boshqa diniy ozchiliklarni zo'ravonlik, ta'qib va kamsitishning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish (Polsha);

Ta'limda de-fakto ajratishga barham berish va Roma (lo'li) bolalari, ayniqsa, Roma (lo'li) qizlari inklyuziv va sifatli ta'lim olish huquqidan foydalanishini ta'minlash (Kosta-Rika);

Migrantlar va qochqinlarni himoya qilishni rag'batlantirish (Kamerun).

Interaktiv muloqot davomida ishlab chiqilgan/quyida keltirilgan tavsiyalar O'zbekiston tomonidan o'rganilgan va O'zbekiston tomonidan qayd etilgan:

Bir jinsdagi kattalar o'rtasidagi rozilik asosidagi jinsiy aloqalar uchun jinoiy javobgarlikni bekor qilish uchun Jinoyat kodeksining 120-moddasini bekor qilish va sud jarayoni doirasida jismoniy tekshirishlardan dalil sifatida foydalanishini tugatish (Meksika);

Katta yoshdagi erkaklar o'rtasida o'zaro rozilik asosidagi jinsiy aloqalar uchun jinoiy jazo belgilash nazarda tutilgan Jinoyat kodeksining 120-moddasini bekor qilish (Chernogoriya);

Jinoyat kodeksining 120-moddasida ko'zda tutilgan bir jinsdagi kattalar o'rtasidagi rozilik asosidagi munosabatlar uchun jinoiy jazo belgilashni bekor qilish (Ispaniya);

Bir jinsdagi odamlar o'rtasidagi o'zaro rozilikka asoslangan jinsiy aloqalar uchun jinoiy jazo belgilashni bekor qilish yo'li tomon harakatni boshlash uchun fuqarolik jamiyatini jalb qilgan holda milliy darajadagi jamoatchilik muhokamalarini boshlash (Urugvay);

2018-yilgi Universal davriy hisobot natijalari bo'yicha berilgan tavsiyalarga muvofiq, bir jinsdagi shaxslar o'rtasida o'zaro rozilik asosidagi munosabatlar uchun jinoiy jazoni belgilaydigan va bunday odamlarni tamg'alaydigan me'yoriy-huquqiy baza va ma'muriy hujjatlarni bekor qilish (Argentina);

Jinoyat kodeksining 120-moddasini bekor qilish yo'li bilan kattalar o'rtasidagi o'zaro rozilik asosidagi bir jinsli munosabatlar uchun jinoiy jazo belgilanishini bekor qilish (Avstraliya);

Bir jinsdagi shaxslar o'rtasidagi o'zaro rozilikka asoslangan jinsiy aloqalar uchun jinoiy jazo belgilanishini bekor qilish (Chili);

Jinoyat kodeksining 120-moddasini bekor qilish (Islandiya);

Jinoyat kodeksining 120-moddasiga muvofiq jazoni o'tayotgan barcha LGBTKI+ shaxslarni ozod qilish va ularning sudlanganlik haqidagi qaydlarini davlat ro'yxatlaridan olib tashlash (Islandiya);

Erkaklar o'rtasida o'zaro rozilikka asoslangan jinsiy aloqalar uchun jinoiy javobgarlikni bekor qilish va Jinoyat kodeksining 120-moddasi bo'yicha sudlanganlarning barchasini ozod qilish va rehabilitatsiya qilish (Fransiya);

LGBTQI+ shaxslarga nisbatan qo'rqitish va zo'ravonlikni to'xtatish hamda teng imkoniyatlarni ta'minlash, jumladan, kamsituvchi qonun va qoidalarni yo'q qilish (Belgiya);

Rozilikka asoslangan bir jinsli munosabatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilanishini taqiqlashdan tashqari, kamsitishning barcha shakllarini, shu jumladan jinsiy oriyentatsiya va gender identifikatorini taqiqlovchi keng qamrovli qonun hujjatlarini qabul qilish (Braziliya);

Xotin-qizlar va LGBTI vakillarining huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilishni ta'minlash hamda xotin-qizlar va erkaklarning jamiyatda to'liq, teng va mazmunli ishtirokini ta'minlash, shu jumladan, Vazirlar Mahkamasida ayollar vakilligini yetarli darajada oshirish (Kanada);

LGBTQI+ shaxslarni majburiy va intruziv jismoniy tekshirish amaliyotini darhol to'xtatish (Islandiya);

OIV uchun majburiy test topshirish borasidagi qonun va ko'rsatmalarni bekor qilish va tibbiyot xodimlaridan OIVga musbat test topshirgan LGBTQI+ shaxslar to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishni talab qiluvchi siyosat va/yoki ichki ko'rsatmalarni bekor qilish (Islandiya).

Mazkur hisobotda keltirilgan barcha xulosalar va/yoki tavsiyalar taqdim etuvchi davlat(lar)ning va/yoki ko'rib chiqilayotgan davlatning pozitsiyasini aks ettiradi. Ular butun Ishchi guruh tomonidan ma'qullangan deb talqin qilinmasligi kerak.